

YOSHLARDA MILLIY ESTETIK QADRIYATLAR ORQALI TARBIYANING AHAMIYATI

Boyto'rayev Sirojiddin

*Denov radbirkorlik va pedagogika
instituti o'qituvchisi*

Samadullayev Lazizbek zafar o'g'li

Ishxo'jayev Nurbek Sherzod o'g'li
*Denov tadbirkorlik va pedagogika
instituti talabalari*

ANNOTASIYA: *Maqolada milliy qadri tlariga asoslangan yoshlar tarbiyasi haqida fikr ritilgan. Har bir inson oz umrini tabarruk zotlar kechirgan ibratli hayot bilan taqqoslaydi. Uning konglida, men mana shu zotlarimizga munosib voris manmi? – degan savolni ragiga tugadi. Ular shu qadar bu k meros qoldiribdiki, mendan nima qoladi – degan tuygu bilan Oz faoli tini boğlasin. Darxaqiqat qadimda xunar organish muqaddas hisoblanib xalq kelajak avlodlarga ozidan takrorlanmas hunarlari bilan qadrlangan. Inson hayoti bir manzildan ikkinchi bir manzilga qarab riladigan yolga oxshaydi. Bu yo'lda tekis yoki ravon, past yoki baland, olis va uzoq mashaqqat bilan rishadigan manzillar bor.*

Kalit sozlar; *qadriyat, estetika, tarbiya, faoliyat, oila, bola, mahalla, inson, yosh avlod, pedagogika, o'quvchi, o'qituvchi, shaxs, kasb-hunar , sub'ekt*

Yoshlarimizda tarbiyaning asosi oiladan boshlanadi. Bugungi davrda, avvalo, oila boshi ota-onaning ozi tarbiyalangan bolishi va oz ibratli xulqi va fazilatlari bilan farzandlarini barkamol komil inson qilib tarbiyalashga oz hissasini qoshishi lozimligini talab etmoqda.

Milliy qadriyatlar esa Ozbekistonda demokratik jamiyatni qurishda ahloqiy, ma'naviy va madaniy rivojlanishining ajralmas qismi hisoblanadi. Davlat

dasturining etakchi yonalishlariga kora zamonaviy yoshlarning ma'naviy shakllanishi asosiy prinsiplari bu milliy ozlikni anglash, oz Vataniga gururlanish tuygusini vatanparvarlikni shakllantirish, milliy-qadriyatlar, an'ana va intellektual merosga hurmatni shakllantirishdir.

Estetik tarbiya bu insonyat faoliyatidagi eng qadimiy mashg'ulotlardan biri hisoblanadi, estetik tarbiya har doim tarbiyaviy tadbirlarning eng asosiy negizi bo'lganligini e'tirof etish lozim va albatta estetik tarbiya ilmiy dunyoqarashni shakllanishida barkamol avlodni bilim doirasini kengaytirishda alohida e'tiborga molik. Estetik tarbiya – insonning voqelikdagi va gozallikni idrok etish, tushinish va qadriga etish qobiliyatini o'stiradi, estetik tarbiya shuningdek, insoniyat faoliyatining har qanday sohasida estetik boyliklar yaratish, gozalik qonuni boyicha ijod qilish ehtiyojidan kelib chiqadi. Estetik tarbiyaning asosiy maqsadi-jamiyat a'zolarining har tomonlama mukammal rivojlanishlari uchun gozallikni tolaqonli his etishga komaklashishdan iboratdir. Estetik tarbiya eng avvalo, tabiat va jamiyatda gozallikni kora bilish, uni to'g'ri tushinish va qadrlash qobiliyatini tarbiyalashdan iborat. U hayot va mehnatning barcha tomonlariga gozalik ato etish qobiliyatini tarbiyalash, dunyoda mavjud bo'lgan gozallikni idrok qila bilishga va hayotda haqiqiy gozallik uchun kurashni orgatadi.

Har bir inson oz umrini tabarruk zotlar kechirgan ibratli hayot bilan taqqoslaydi. Uning konglida, men mana shu zotlarimizga munosib voris manmi? – degan savolni yuragiga tugadi. Ular shu qadar buyuk meros qoldiribdiki, mendan nima qoladi – degan tuygu bilan o'z faoliyatini bog'lasin. Darhaqiqat qadimda hunar organish muqaddas hisoblanib xalq kelajak avlodlarga ozidan qoladigan takrorlanmas hunarlari bilan qadrlangan. Inson hayoti bir manzildan ikkinchi bir manzilga qarab yuriladigan yolg'a oxshaydi. Bu yo'lda tekis yoki ravon, past yoki baland, olis va uzoq mashaqqat bilan erishadigan manzillar bor. Biz yoshlar bu manzilda bamisoli to'g'lar osha odimlayotgan odamlarmiz.

Mamlakatimizda so'g'lom va barkamol avlodni tarbiyalash yoshlarning oz ijodiy va intellektual salohiyatini royobga chiqarish, mamlakatimiz yoshlarini XXI asr talablariga tuliq javob bera oladigan, har tomonlama rivojlangan shaxslar

bo'lib voyaga etkazish uchun zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratish boyicha keng ko'lamli aniq yonaltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadida bejiz emas. Jamiyatning kelajagini, davlatning istiqbolini, xalqning iqbolini yoshlarga berilayotgan ta'lim va tarbiyaning samarasi, sifati bilan bog'liqligini his etmaslik mumkin emas. Shunday ekan, bolalarimizning yurish-turishi, dunyoqarashi va qiziqishi bilan qiziqmaslik ham loqaydlikdir.

Mudhish illatlarning ibtidosi esa loqaydlikdan boshlanadi. Shunday ekan, har birimiz ota-onamizmi yoki biron kasb egasimizmi hammamiz uyda ham, ko'chada, mahalla-koyda, ishxonada ham bolalar tarbiyasiga mas'ul ekanligimizni unutmasligimiz kerak. Yoshlar har xil ta'sirlarga beriluvchan bo'lishini ularni yot va yov goyalar oqimiga qo'shilib ketmasligi uchun hammamiz javobgarmiz. Xuddi shu maqsad bilan bugun Yoshlarning foydali mashg'ulotlar bilan shug'ullanmasdan, ko'cha- koyda sanjib yurishi, maxsus kasb-hunar to'garaklariga bormasdan vaqtlarini behuda otkazishlari xunuk oqibatlariga olib kelishi mumkin. Goyaviy boshliq bor bo'lgan joyda turli illatlar, jinoyatlar uchraydi. Yoshlarni millat tanlamas illatlar – giyohvandlik, odam savdosi, spid, diniy ekstremizm, terrorism kabi ofat-balolardan saqlash burch va vazifamizdir.

Bugungi kunda mamlakatimizda yoshlarimizning barkamolligi uchun barcha imkoniyatlar eshigi keng ochilgan. Shunday ekan, yosh avlodning ma'naviy olamini buzgunchi ta'sirlardan asrash uchun ta'lim-tarbiya jarayonida qanday tamoyillarga asoslanish va qanday jihatlarga e'tibor qaratish kerak, degan masala faylasuflar, gumanitar fan olimlarining diqqat markazida turibdi. Ana shu jihatlarni inobatga olib ushbu maqolada barkamol yosh avlodni milliy qadriyatlarga tayanib estetik tarbiyalash kun tartibidagi dolzarb muammolardan biri ekanligi yoritilgan. Barkamol yosh avlod ijtimoiy-siyosiy faollikni oshirishda estetik tarbiya va ma'naviy tarbiyaning orni masalasiga alohida toxtalishi bu masalaning bugungi kun uchun ham hayot-mamot darajasida ota muhimligidan dalolat beradi.

Ta'lim muassasidagi talabalarda esa milliy qadriyatlarni shakllantirishga yonaltirilgan tarbiyaviy faoliyatining asosida tahsil oluvchi va tarbiyachi

ortasidagi sub'ektning-sub'ektga bo'lgan munosabati yotadi, bunday munosabatlar talabalarga nisbatan insoniy, xayrixoh va qulay bo'lishi lozim. Ushbu jarayonning psixologik mexanizmlarini hisobga olish va ta'minlash – qadri yatlarni interorizasiyalashuvini o'quvchilarning bilimlari, hissiyotlari va o'zini tutishlarini faollashtirish orqali amalga oshirish darkor. Mahalla (mahalla fuqarolar yig'ini) o'ziga xos, betakror kichik muhit shakli, u xalqqa nisbatan eng yaqin va o'zida ijtimoiylashuvning bir qancha turlarini jamlaydi. U maslahatchilar, o'quvchilar va yoshlar uchun to'garaklarga ega bo'lgan holda yoshlarni milliy qadriyatlarga asoslanib tarbiya qilish ishlarini tashkillanishi uchun katta imkoniyat yatlarga ega, chunki mahallaning faoliyati yahlit va tabiiy va kunlik faoliyat davomida pedagogikaning tamoyillarini o'zida namoyon qiladi.

Mahalla ega yaqin ijtimoiy muhit sifatida, hayotning ma'lum bir qancha salbiy jihatlari zararsizlantirishga imkoniyat yaratadi, yoki ularni jamiyatdagi g'oyalar va ideallar, xalqning ma'naviyati va madaniyati, shaxsning manfaatlariga mos kelishiga qarab sezilarsiz darajaga keltiradi. Bunga "Oila-mahalla-ta'lim muassasasi" loyihasida, doirasida hamkorlikka imkoniyat yaratadi, OTM va mahallaning o'zaro aloqasi talabalarga milliy qadriyatlarni singdirish bo'yicha turli jamoaviy va shaxsiy faoliyat turlarini tashkil qilishga yo'l ochadi.

Muzey pedagogikasi-milliy qadriyatlar, madaniyat va ta'limning aralashmasi sifatida talabalarda o'z xalqining tarixi va madaniyatiga nisbatan qadri munosabatning rivojlanishiga imkoniyat yaratadi. Muzeychilik faoliyatining turli shakllari va texnologiyalari milliy madaniyatning keng ma'nodagi boyligi va o'ziga xosligini to'liq va har tomonlama organishga yo'l ochib beradi. Bu sohada alohida sermaxsullik namoyish qilayotgan yoshlar tomonidan ma'daniy-qadriyat va vatanparvarlikka yo'naltirilgan OTM muzeylarini tashkil qilish va ishlatish bo'yicha faoliyatni korsatib o'tishimiz mumkin. Muzeylar faoliyati undagi ijtimoiy-madaniy muhit bilan o'zaro munosabatda bo'lishini ta'minlaydi, bu esa o'z navbatida talabalarda shaxsiy fikr, munosabat, hissiy baholashni yuzaga chiqaradi, tadqiqot va tashkiliy faoliyatga bo'lgan qiziqishni uyg'otadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat engilmas kuch-T; Ma'naviyat,2008y
2. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. -Toshkent: O'zbekiston, 2016. - 56 B.
3. Karimov I.A «Barkamol avlod orzusi». –T.: «O'zbekiston» 2000. 4.Karimov I.A “O'zbekiston XXI asrga intilmoqda”. O'zbekiston» 2001.
- 5.Sh.M.Mirziyoev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T. "O'zbekiston", 2017 yil.
- 6.Mirziyoev.Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T. "O'zbekiston",2017 yil.